

RUHIY RIVOJLANISH JARAYONINING IJTIMOIY O'RGANISH MASALALARI

Mullayeva Saidaxon Jo'ramirzayevna
*Farg'ona viloyati Buvayda tumani 49-umumiy o'rta ta'lif muktab amaliyotchi
psixolog*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiylashuv — biologik mavjudot ya'ni go'dakning tamomila oila, guruh umuman olganda insoniyat jamiyatini to'laqonli a'zosiga astasekin aylanish jarayoni sifatida, yangi ijtimoiy xulq-atvorni egallash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Xulq-atvorning umumiy nazariyasi xulq-atvor namunalari qanday tarzda o'zlashtirilishini va ularning namoyon bo'lishi o'zaro aloqada bo'lgan tashqi va ichki ta'sir manbalari tomonidan qay tarzda doimo boshqarilishi izohlanadi.

Kalit so'zlar: Pedagogika, psixologiya, ijtimoiy o'rganish, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tasavvurlar, shaxslararo moslik.

KIRISH

Ijtimoiy o'rganish ta'lilotining markaziy muammosi sifatida ijtimoiylashuv Amerikada XX asrning 30-yillari oxirida ijtimoiy o'rganishning kuchli psixologik yo'nalishi yuzaga kelgan. Ijtimoiy o'qitish sohasida anchadan beri tadqiqotchilarining bir necha avlodni ishlab kelishmoqda. Bu avlodlar amerika psixologiyasining o'zida ajratib ko'rsatilgan. Klassik bixevoirizm nazariyachilaridan farqli ravishda ijtimoiy o'qitish nazariyasi xulq-atvorda ichki motivatsiyaning rolini tan olib avvalo uning qo'zg'atuvchi funksiyasining muhimligini ta'kidlaydilar, ular organik ehtiyojlardan kelib chiquvchi (ochlik, suvsizlik, og'riq) birlamchi qo'zg'atuvchilarni jahl, ayb, harakatlarga ehtiyoj, qo'rquv, xavotirlanish ikkimalamchi qo'zg'atuvchilarni ajratganlar. Psixoanalizda xulq-atvorning asosiy boshqaruvchisi qoniqish tamoyili ular tomonidan qo'llab-quvvatlash tamoyiliga (rag'batlantirish) o'zgartirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lif to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dastlab ijtimoiy o'rgatish nazariyasi qat'iy obyektiv (pozitiv) empirik bilimlarni egallash metodlarini ishlab chiqishga yaqqol ifodalangan yo'nalganlik bilan salbiy va ijobiy falsafiy asosga qurilgan. Psixologik tadqiqot metodologiyasi rejallashtirishning puxtaligini ma'lumotlarni qayd etishning tizimliligini bog'liq va bog'liq bo'lmanan

o‘zgaruvchilarni nazorat qilish va o’zlashtirishni miqdoriy baholashning mumkinligi talab qiladi. Individga xulq-atvor namunalari rollar, me’yorlar motivlar, kutuvsalar, hayotiy qadriyatlar, emotsiyalarni o‘tkazish orqali individning ijtimoiy xulq-atvorini hayotiy shakllantirishni ifodalash uchun N.Miller va D.Dollard tomonidan ijtimoiy o‘rgatish atamasi kiritilgan edi. Ushbu ilmiy yo‘nalish vazifalarini uning nazariy yetakchisi Bandura shunday shakllantirgan. XX asrning ikkinchi yarmida Amerika psixologiyasini rivojlanishi uchun ijtimoiylashuv muammosini asosiy deb hisoblash mumkin. Jamiat bolalarni umum qabul qilingan me’yoriy muammolar bilan muvofiqlikda o‘zlarida tutishlariga undashda qo‘llaydigan mexanizmlar ya’ni usullarni yetilishi esa uning bosh maqsadidir. Ijtimoiy o‘qitish nazariyasini psichoanalizda (misol uchun antagonizm haqidagi dastlabki tezis, bola va jamiatning qarama-qarshiligi) ba’zi bir holatlarni qabul qilib o’zlashtirgan va ularni o‘rgatishning bixevoiristik tamoyillari bilan bog‘langan. Ijtimoiy o‘qitish yo‘nalishi nazariyasining butun bir spektridan iborat.

O‘qitishning aniq mexanizmlariga yondashuvlarda nazariya mualliflarining qarashlari farqlanadi, biroq ijtimoiy xulq-atvorga o‘rgatish g’oyasi ahamiyatini butunlay qo‘llab-quvvatlaydilar. O‘tgan asrning 40—50-yillarda manipulyativ laboratoriya eksperimenti tadqiqotning hukmron metodi bo‘ldi. Ijtimoiy o‘rgatishda bolalik o’tib ketuvchi nevroz bilan qiyoslanganda xulq-atvor buzilishi va qayta yo‘naltirish davri sifatiga tushunilgan. Bu tushunchalardan kelib chiqib, bolani ijtimoiylashtirishi uchun ota-onaning vazifasi quyidagilardan iborat bo‘lgan: ovqatlantirish, tuvakka o‘rgatish, bolada agressiyaning namoyon bo’lishi, uni jinsiy identifikatsiyasi va me’yoriy xulq-atvorning boshqa xususiyatlari bilan bog’liq bo‘lgan yosh davriga oid muammolarni bartaraf qilish.

Kuzatish, taqlid qilish orqali o‘rgatish fenomeni Murakkab ijtimoiy xulqatvorning egallanishini izohlash uchun operant va respondent o‘rgatish mexanizmlari yetarli emas.

Xulq-atvor modeliga amal qilish kodlangan axborot ma’lumotga tayangan holda sodir bo’ladi. Agressiyani moyillashtirish sharoitlarini o’rganish ijtimoiy o‘rgatish nazariyasining tayanch mavzularidan biridir. Ijtimoiylashuv tushunchasi favqulotda keng va ko‘p qirralidir, har bir madaniyatda jamiyatning tarkibiy a’zosini sifat va bilishga o‘z talablari mavjud. Biroq, xulq-atvorning ba’zi ko‘rinishlari ko‘proq universal umumiyl rol o‘ynaydi? Hamkorlik, o’zaro yordam, altruistik xulq-atvor, agressiyaning maqbul shakllari hayotning bunday jihatlariga o’rganish har qanday ham jamiyatda mutlaqo zarurdir.

Bolaning psixologik tabiat haqidagi tasavvurlarning o‘zgarishi. Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmida amerika psixologiyasida rivojlanish asta-sekin bolaning psixologik tabiat haqidagi tasavvurlarga o‘zgaradi. Bola nafaqat o‘z atrofidagilarning ta’sirini his qiluvchi, balki o‘zi ham ularga ta’sir ko‘rsatuvchi, ya’ni o‘zaro aloqa

bo'yicha ham korsubyekt sifatida faol mavjudot sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Yangi yondashuvning ayrim jihatlari A.Bandura va D.Gevirts g'oyalarida ifodalandi, chunonchi, masalan, hayotning ilk bosqichlarini mustaqil ravishda kuzatish orqali o'rgatish haqiqiy amaliyligini, xulq-atvor harakatlari tuzilishida ichki kogniuv o'zgaruvchilarni ajratishni, ichki quvvatlovchi javoblar ahamiyatini e'tirof etgan. XX asrning 70-yillari o'rtalariga kelib, psixika ontogenezini tadqiq qilish uchun ijtimoiy o'rgatish nazariyasi va manipulyativ eksperiment metodidagi asosiy qiyinchilik yo'nalishning o'zini ichida aniq bo'ldi:

— ma'lum otlar aniqligi va to'g'rililiga urinishda qidiruv eksperimentidan voz kechish yuz berdi, eksperimental metod o'zo'zidan ma'lum bo'lgan faraz bilan laboratoriya testlariga muvofiqlashtirishdi;

— ko'pincha laboratoriya eksperimenti sun'iy xarakter kasb etgan real hayotiy muammolardan ajratib olingan va bolaning psixik rivojlanish jarayonlarini tushunish uchun yaroqsiz amaliyot talablariga javob bera olmaydi:

— tadqiqot natijalari yoshga bog'liq tafovutlar va kishilar xaraktekistikalarini qayd etishni o'zida namoyon etgan, lekin ularning yordami bilan rivojlanish sabablarini va shartlarini aniqlab bo'limgan — ko'p takrorlanuvchi empirik ma'lumotlarda tushunchani umumlashtiruvchilari kam sonli va kuchsiz edi; — kattalar va bolalar, hayvonlar va insonlar psixik faoliyatining umumiyligi mexanizmlari mavjudligiga uqtirish insonning ontogenetik rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarning haqiqiy imkoniyatlarini tizimli ravishda pasayishiga olib keldi.

Ma'lum qilinishicha, rivojlanish psixologiyasi "imkon qadar qisqa oraliq vaqt mobaynida qiziq bir inson bilan ajoyib o'zaro ta'sir vaziyatida bolaning g'alati xulqatvori haqidagi fan" istehzoli bo'lish kerak emas deb uni U.Bronfenbrenner ta'riflagan. Ushbu qarama-qarshiliklarni anglash rivojlanishning amerika psixologiyasida yangi tendensiya (g'oya) tabiiy tadqiqot g'oyasini tug'ilishiga bolaning psixik rivojlanishi tuzilishidagi aksentlar aralashuviga olib keladi. XX asrning 80-yillari boshida ilmiy tadqiqotning majburiy xarakteristikalaridan biri ekologik validlik talabi bo'lgan. Ekologik validlik kundalik hayotdagি vaziyatlar xususiyati sinaluvchilarni tadqiqot vaziyatda qurshab turuvchi shart-sharoitlar muvofiqligi sifatida muhokama qilinadi. Tadqiqotchining dolzarb shiori bolaning bilish jarayonlari va har qanday faolligini bu uning tabiiy maqsadga yo'naltirilgan faoliyatida qanday o'rin egallasa shunday ko'rinishda o'rganish kerak, eksperimental tadqiqot o'tkazishga yangi talablar ilgari surilgan edi: sinaluvchiga ko'rsatmani maishiy(kundalik) tilda taqdim qilish eksperimentator faolligini cheklash, sinaluvchini diqqat bilan kuzatishi va uning hal etish strategiyasini qayd qilib borish o'zgarishlarni aniqlash o'rgatuvchi eksperimental tadqiqotlar qo'llanilishidan voz kechish real hayotda aynan shu metod va mexanizmlar qo'llanilishiga kim kafolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Insoniyat taraqqiyotini tushunishga ekologik yondashuvda bu o'zgarishlar birmuncha darajada yaqolroq ko'zga tashlanadi. U.Bronfenbrenner, D.Kyun, D.Vulvili, R.Makkol bolaning hayotini yaqin oilaviy qurshovdan boshlab, ijtimoiy, tarixiy kontekstgacha o'z ichiga oluvchi real sharoitlarida uning kundalik xulqatvorini o'ziga xos xususiyatlarini diqqat bilan tadqiq qilish zaruriyatiga e'tiborini qaratadi. Analizga ekologik ahamiyatli o'zgaruvchilar sifatida bolaning barcha hayotiy jabhalari kiritiladi uy, oila, sinf, transport, ijtimoiy rollar va funksiyalar: qiz, opa, o'quvchi xulq-atvor faolligini xarakteristikasi davomiylik, zo'riqish.

Aslida vaziyat bundanda murakkab chunki, ajratilgan omillar ta'siri bir qator boshqa xususiyatlar, xususan jins, yosh, irq, ijtimoiy mansubligi. So'z inson hayot yo'liga bu omillarning murakkab qorishgan ta'siri haqida bermoqda. Shunday qilib, biz inson psixik rivojlanishini aniqlovchi omillar muammosiga asosiy e'tiborni qaratib, O.Uotsonning klassik bexiviorizm nazariyasi, B .Skinnerning operant o'rgatish nazariyasi, A.Banduraning ijtimoiy kognitiv nazariyasi va U.Bronfenbrennerning ekologik tizim modeli misolida rivojlanish psixologiyasidagi xulq-atvor yondashuvi evolutsiyasini kuzatdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. — T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan quramiz. — T.:O'zbekiston, 2017.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
5. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). Constitutional And Legal Basis Of The Institute Of Public Control In The Republic Of Uzbekistan (Theoretical Analysis). *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(04), 42-45.
6. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). THE SPIRITUAL FOUNDATIONS OF A DEMOCRATIC SOCIETY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(12), 130-134.
7. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.